



## **“Kelajak soati” 7-mavzu**

### **Boqiy shaharlarimiz**

[Metodologiya](#)

#### **Dars ssenariysi**

Dastlabki 10 daqiqada mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etiladi (prezentatsiya).

#### **1. KIRISH. Motivatsion qism. “O‘zbekistonning tashrif qog‘ozlari”**

**(10 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar.

Keling, bir soniyaga tasavvur qiling-a, siz sayohatga chiqdingiz.

Yo‘l xaritangizda – Samarqand, Buxoro, Xiva, Marg‘ilon, Qo‘qon.

Qaysi shaharga birinchi borishni xohlardingiz? Nima uchun aynan shu yerga?

*O'quvchilar javobi*

...Ha, har biringizning tanlovingiz ortida qiziq sabab bor.

Chunki bu shaharlar – shunchaki manzil emas. Ular O'zbekistonning shonli xotirasi, faxri va g'ururidir.

Boqiy shaharlar – bu xalqning ruhi, biz esa bugun ana shu ruh bilan suhbatlashamiz.

Boqiy shaharlar mamlakatimiz uchun qanday ahamiyatga ega? Keling, mutaxassislardan so'raylik-chi.

### **Vizual kontent**

**Samarqanddan Shoshtepagacha – ular feniks qushi – Nodir Nishonov**

**O'qituvchi:** To'g'ri, haqiqatdan ham Vatanimiz buyuk tarixga, boy madaniy merosga ega!

**- Demak, qanday tarixiy va buyuk shaharlarimiz bor ekan?**

*O'quvchilar javobi*

**O'qituvchi:** Juda to'g'ri.

Haqiqatdan ham **Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Qo'qon, Toshkent, Shahrisabz, Termiz, Marg'ilon, Qarshi** kabi **boqiy shaharlarimiz** bor.

“Samarqand yer yuzining sayqali, Buxoro islom dinining quvvati” degan mashhur jumlar ham bejizga aytilmagan.

**Aytingchi, dunyoni hayratga solgan bunday shaharlarni kimlar barpo eta olardi?**

*O'quvchilar javobi*

**O'qituvchi:** Xuddi shunday, bu shaharlarni **qudratli va boy davlatlar egalari bo'lgan** ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz qurgan.

**Chunki O'zbekiston – buyuklar yurti.**

Shu yurtda kamol topgan ajdodlarimiz – xoqonlar, sultonlar, xonlar, amirlar, sarkardalar o'z davrida qudratli davlatlar va imperiyalarga asos solgan edi.

Birgina Sohibqiron **Amir Temur timsolida** hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari, Rossiya, Mo'g'uliston, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eronu Iroq, Suriya, Misr, Turkiya, Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston kabi jami **27 ta** davlat, xullas, **yarim dunyoda buyuk imperiya barpo etgan** va katta davlatchilik tarixiga asos solgan xalqmiz.

Har safar Amir Temur bobomiz biror mamlakatni ishg'ol qilgandan so'ng mamlakatga qaytar ekan, to'g'ri Samarqandning Registon maydoniga ot o'ynatib kirib kelgan. Bu yoqda u kishini do'mbiralalar, nog'oralar, karnay-surnaylar chalib g'alaba kuylari bilan kutib olishgan. Samarqand shunchaki poytaxt shahar emas, ko'p muzaffarlarni ko'rgan qaddi va g'ururi baland shahar.

Shu bilan birga u buyuk Temur bobomiz abadiy qo'nim topgan joy.

Aynan ana shu buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida katta-katta shaharlarni bunyod etdilar, muazzam imoratlarni tikladilar.

Bu obidalar hozir ham dunyoni hayratga solmoqda va jahon me'morchiligining nodir durdonalari sifatida xorijiy sayyohlarni o'ziga rom etmoqda.

Aslida dunyoda shohlar, sarkardalar ko'p. Lekin ularning aksari faqat buzgan, vayron qilgan.

Ammo bizning bobolarimiz bunyod qilgan, qurgan, yaratgan!

## **Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz:**

**“AGAR QUDRATIMIZGA SHUBHA QILSANG, BIZ QURGAN IMORATLARGA BOQ!”** deganida ham millatimizning, mamlakatimizning nechog‘lik bunyodkorlik qudratiga ega ekanligiga ishora qilgan edi.

Albatta, dunyo ahlining ham buyuk Sohibqironga bo‘lgan ehtiromi yuksak edi.

Misol uchun, rus knyazlari Oltin O‘rda istibdodidan xalos etganligi uchun **Yeles shahrida bobokalonimizga yodgorlik, Tobolsk yaqinida esa minora qurdirgan.**

Fransuzlar esa Amir Temurga **oltindan haykal** o‘rnatgan.

1853-yilda Angliyaning “Old Vik” teatrida Karl Marloning **“Buyuk Temur”** spektakli sahnalashtirilgan. G‘arbning mashhur rassomi **Rembrandt** ham Sohibqiron suratini ishlagan.

**Ha, aziz o‘quvchilar, biz vujudida ana shu buyuk hoqonlar, sarkardalar, shohlar va beklarning qoni oqayotgan millatmiz!**

O‘z oldimizga yurtimizning qadim shon-shavkatini yana tiklash, shonli tarixini qayta yozish, **“Uchinchi Renessans”** poydevorini qo‘yishni maqsad qilgan xalqmiz.

Biz boqiy shaharlardagi obidalarga nima uchun boramiz?

*O‘quvchilar javobi.*

**O‘qituvchi:** Kelinglar, shu savolga javobni mana bu video orqali birga qidiramiz.

## **Boqiy shaharlardagi obidolarga nima uchun boramiz?**

**O‘qituvchi:** Bilasizmi, bugun O‘zbekiston sayyohlik sohasidan yiliga qancha daromad qiladi? Taxminan bo‘lsayam ayting.

*O‘quvchilar javobi*

**O‘qituvchi:** Ha, aniqroq aytadigan bo‘lsak, **2025-yilga** kelib bu ko‘rsatkich **3,5 mlrd. AQSH dollariga yetdi!**

Siz o‘quvchilar, bu mablag‘ning iqtisodiyotimiz uchun, aholi farovonligi uchun qanchalik muhim ekanini yaxshi bilasiz.

Haqiqatdan ham, bugun **O‘zbekiston – Markaziy Osiyoning yuragi, javohiri** sifatida yirik turizm markaziga aylanmoqda.

Mintaqaning boshqa mamlakatlarida bunday salohiyat, bunday tarix yo‘q!

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi poydevoriga tamal toshi qo‘ygan paytda:

**“Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”, deb alohida ta’kidlagan edi.**

Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar tashkilotining xalqaro turizm tashkiloti tomonidan (UNWTO) turizm sohasi bo‘yicha eng tez rivojlanayotgan **20 ta** davlat ro‘yxatida O‘zbekiston **4-o‘rinda** qayd etildi. (2020 yil).

**Endi savol tug‘iladi, xo‘sh, xorijlik sayyohlar O‘zbekistonga nima uchun keladi?**

*O'quvchilar javobi.*

**O'qituvchi:** To'g'ri va tabiiyki, ular, avvalo, **Samarqand, Buxoro, Xiva** singari qadimiy shaharlarimizni, millatning buyuk o'tmishiga daxldor tarixiy obidalarimizni o'z ko'zi bilan ko'rish, muqaddas qadamjolarimizni ziyorat qilish uchun keladi.

Bundan xulosa shuki, bobolarimiz o'zlari bunyod etgan imoratlari evaziga **bizga shunday katta daromad manbasini, shon-shuhratni meros qoldirgan.**

Bugun bizning asosiy burchimiz ana shu tarixiy merosni asrab avaylashdan iborat.

Buni chuqur anglagan holda Prezidentimiz rahbarligida jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

**O'qituvchi:** Endi esa, bir jumboqli o'yin o'ynaymiz. Ya'ni yurtimizdagi qadimiy obidalar va an'anaviy maktablarni qanchalik yaxshi bilishingizni tekshiramiz.

*Ekranda "Boqiy shahar tasvirlari aks etgan jumboq" ko'rinadi. Jumboqni boshlashdan avval o'qituvchi undagi obidalar va an'anaviy maktablar nomlarini daftarga yozishni aytadi. Keyingi rolikda javoblar tekshiriladi.*

**Vizual kontent**

*Boqiy shahar obidalari va an'anaviy maktablar nomini toping (jumboq)*

**O'qituvchi:** Bu shaharlar yuz yillar emas, ming yillar davomida saqlanib qolgan. Shuning uchun ularni *boqiy shaharlar* deyishadi. Ular insoniyatning tarixiy xotirasi. Hozir javoblaringizni tekshiramiz.

**Vizual kontent**

*Boqiy shahar obidalari va an'anaviy maktablar. Javoblarni tekshiring!*

## **2. ASOSIY QISM. Islohotlar mohiyati. (25 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** O‘quvchilar, sizlar o‘zbek so‘mlaridagi suratlarga hech e‘tibor berganmisizlar?

*Yonidan yangi o‘zbek so‘mi kupyuralaridan birini chiqarib ko‘rsatadi.*

**O‘qituvchi:** Qaranglar, bu yerda qaysi obida aks etgan?

*O‘quvchilar javobini tinlaydi.*

**O‘qituvchi:** Kelinglar endi so‘mimizda aks etgan suratlar haqida videorolik tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

#### **O‘zbek so‘mlarida aks etgan bog‘iy shaharlar**

Ko‘rib turganingizdek, mamlakatimizdagi me‘moriy obidalar va qadimiy shaharlar davlat siyosati darajasida himoya qilinadi va targ‘ib etiladi, hatto pullarimizga ham tasvirlari tushirilgan. Madaniy merosimizni asrab avaylash shu bilan chekinib qolmaydi, albatta.

Avvalo, mamlakatimizda **“Madaniy meros agentligi”** tashkil etildi.

Qadimiy shaharlarning tarixiy yodgorliklarini restavratsiya qilish ishlari **YUNESKO** bilan hamkorlikda amalga oshirmoqda.

Shu maqsadda Prezident **Farmoni** (26.05.2020-6000-son) asosida **YUNESKO** shafeligida **Xalqaro maslahat qo‘mitasi** tashkil etildi.

So‘nggi **5 yilda** ushbu maqsadlarga katta mablag‘lar ajratildi.

Misol uchun, **2020-yilda** tarixiy obidalarni ta‘mirlashga **22,8 mlrd. so‘m** ajratilgan bo‘lsa, **2025-yilda** bu ko‘rsatkich **3,2 barobarga o‘sdi**.

**“Buxoro”, “Samarqand”, “Ichan qal’a”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon”** davlat muzey-qo‘riqxonalari chegaralari aniq belgilandi va muhofazaga olindi.

### **Samarqand xayoli (5 daqiqa)**

#### **Interaktiv mashg‘ulot:**

**O‘qituvchi:** Samarqand shahrining ko‘rki bo‘lgan Registon ansambli yaratilish tarixini bilasizmi?

*O‘quvchilar javobi*

**O‘qituvchi:** Albatta, fikrlaringiz juda qimmatli.

Samarqand haqida nima eshitgansiz? Uni odatda nima deb atashadi?”

*(o‘quvchilar javob berishadi: “Temur shahri”, “Registon shahri”, “ilm markazi” va h.k.)*

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri! Samarqand – bu faqat me‘morlik yodgorligi emas, bu – ilm, madaniyat va sivilizatsiyaning yuragi. IX asrda bu yerda dunyodagi ilk qog‘oz ishlab chiqarish ustaxonasi ochilgan. Samarqand qog‘ozi butun Sharqda eng yuqori sifatli hisoblangan. Bu yerda Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk siymolar yashagan. Ulug‘bek rasadxonasida yaratilgan astronomik jadvallar haligacha Yevropada ham qo‘llaniladi.

**Savol:** Samarqand qog‘ozi nima uchun muhim bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Qanday fan yoki sohalar uning yordamida rivojlangan?

*(o‘quvchilar: “Yozuv”, “kitoblar”, “ilm”, “huquq” va h.k.)*

**O‘qituvchi xulosa qiladi:** “Ana shunday. Qog‘oz – bilimning eshigi edi. Samarqand ilmning beshigi bo‘lgani uchun u hech qachon yo‘qolmagan. Shuning uchun ham u “Boqiy shahar” hisoblanadi.”

**3000 yillik** tarixga ega bo'lgan va hamisha navqiron Samarqand shahri qadimgi so'g'diy hujjatlarda **“Samarkant”**, qadimgi Yunon va Rim mualliflari asarlarida **“Marakanda”**, **“Marganda”** shakllarida uchraydi.

Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida esa shahar nomi **“Semizkent”** bo'lgani va **“Semiz (boy) shahar”** ma'nosini bildirgani bayon etilgan.

Samarqand qadimgi So'g'diyona davlati, Amir Temur imperiyasi poytaxti sifatida ham mashhur.

Turli davrlarda bu yerda jahon mumtoz adabiyotining namoyandasi **Rudakiy** va olim hamda shoir **Umar Xayyom**, kalom ilmining asoschisi **Abu Mansur Motirudiy** va fiqx ilmining bilimdoni **Burxoniddin Marg'iloniy**, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi **Xo'ja Axrori Valiy**, she'riyat mulkining sultoni **Alisher Navoiylar** yashab ijod etdilar.

Hadis ilmining buyuk bilimdoni **Imom Ismoil al-Buxoriy** Samarqand yaqinida abadiy qo'nim topdi. **Sharof Rashidov, Islom Karimov kabi** davlat va jamoat arboblari shu zaminda kamol topdilar.

Samarqand dunyoning borib ko'rish tavsiya etilgan **50 ta** eng buyuk shaharlari ro'yxatiga kiritilgan va Afina, Rim, Parij, Bag'dod kabi shaharlar bilan bir qatorda e'zozlanadi.

Ha, Samarqandni oddiy shaharlarga tenglashtirib bo'lmaydi!

Har yili **18-oktabr** – **Samarqand shahri kuni** sifatida keng nishonlanadi.

Bayram munosabati bilan taniqli shoir va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshev qalamiga mansub ushbu she'r ham Samarqand ta'rifida alohida diqqatga sazovor:

*Otgan har tong karomatli muazzam Samarqandda,  
Ma'rifatu zako bunda, ilm-fan Samarqandda.*

*Ko'hna tarix guvohlari ohorli, bedor, hushyor,  
Uyg'oq go'yo Temurning qalbi ham Samarqandda.*

*G'arb-u Sharqni bog'laganda Buyuk Ipak yo'llari,  
Barcha iqlim karvonlari tutashgan Samarqandda.*

*Oqillarga beshik bo'lgan – Uyg'onish shamchirog'i,  
Dunyo dardiga har dam bor malham Samarqandda.*

*Teran fikrat bergaydir hadislar zakovati,  
Buxoriy ibratidan nurli sham Samarqandda.*

*Xizr, anbiyo, shayxlar, avliyolar ko'p bunda,  
Motrudiy, ad-Daromiy ham Qusam Samarqandda.*

*Ulug'bek yulduzlari ko'ngilning mavji kabi,*

*Alisher Navoiydan neqadam Samarqandda.*

*Yetti iqlim hayrati yetmish tomirda g‘urur,*

*O, Yangi O‘zbekiston bo‘y cho‘zgan Samarqandda.*

Samarqanddagi “Boqiy shahar” majmuasi haqida nimalarni bilasiz?

*O‘quvchilarning javobi*

Samarqanddagi “Boqiy shahar” majmuasi haqida quyidagi ma’lumotlarni bilishingiz lozim:

- Bu majmua “Silk Road Samarkand” turistik markazi doirasida barpo etilgan etnografik-tarixiy maydon.
- U 17 gektar maydonni tashkil qiladi.
- Unda 44 ta bino bor.

- Majmuaning umumiy qismi Silk Road Samarkand turistik klasteri doirasida bo‘lib, umumiy maydoni 260 gektarga ega turistik markazning bir bo‘lagidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan barpo etilgan mazkur shahar shakil kompleksda qadimiy va zamonaviy me‘morlik uyg‘unligi yaratildi. Uning ochilishi nafaqat mamlakatda, balki jahon hamjamiyatida ham katta qiziqish uyg‘otdi. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, “Boqiy shahar” majmuasi Samarqandning yangi tashrif qog‘oziga aylandi – ya’ni u hozirgi zamonning madaniyat, turizm va xalqlar do‘stligini birlashtiruvchi markazi sifatida O‘zbekistonning yuzi va kelajakka bo‘lgan ishonch ramziga aylandi.

### **Buxoro – Ma’naviyat va din markazi (5 daqiqa)**

**Hurmatli o‘quvchilar endi yurtimizdagi yana bir boqiy shahar xususida so‘zlashsak. Xo‘sh, Buxorodagi tarixiy obidalar haqida nimalar bilamiz?**

*O‘quvchilar javobi*

*O‘qituvchi:*

*“Buxoro haqida gap ketganda ko‘z oldimizga nima keladi?”*

*(o‘quvchilar: “Minorai Kalon”, “madrasalar”, “ilm ahli” va h.k.)*

*“To‘g‘ri! Buxoro – bu ma’rifat va din markazi bo‘lgan shahar. Bu yerda IX–X asrlarda yuzlab madrasalar faoliyat yuritgan.*

*Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk olimlar Buxoro maktabidan chiqqan.*

*Minorai Kalon – bu faqat me‘morlik mo‘jizasi emas, balki, bugungi kungacha turib, “inson yaratgan go‘zallik ham abadiy bo‘lishi mumkin” degan timsol.*

**O‘qituvchi:** Barchangizga katta rahmat. Aytish mumkinki, Buxorodagi tarixiy obidalar miloddan avvalgi **II asrlardan** boshlab qurila boshlangan.

Misol uchun, mashhur **Buxoro Arki** o'rnida miloddan avvalgi **III-II asrlarda** ham inshootlar mavjud bo'lgan.

Ark asrlar davomida Buxoro hukmdorlarining qarorgohi, qal'asi bo'lgan.

Kelinglar, endi Ark haqida bir videorolik tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

#### **Buxoro Arkidan "BUXORO"ni qidiramiz**

**O'qituvchi:** Buxoro madaniyati eng yuksalgan o'rta asrlarda Arkda **Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy, Umar Xayyom** kabi buyuk zotlar yashagan.

Abu Ali ibn Sino bunday yozadi: **"Bu yer kutubxonasidan shunday kitoblarni topdim, ularni oldin ham, keyin ham hech qayerda ko'rmadim. Ularni o'qib chiqdim va menga olam sirlari ayon bo'ldi"**.

Shu muqaddas zaminda tug'ilgan Imom Buxoriy **600 ming** hadis to'plab, shundan **100 ming** sahih, **200 ming** zaif hadisni yod bilani, bu hadislarni to'plashda **90 mingdan** ziyod kishining huzurida bo'lgani bilan butun islom dunyosiga Buxoroni tanitdi.

Ulamolardan bo'lmish Hokim ismli kishi aytadi: **"Bu dunyo ostin-ustun qilib yuborilsa ham, Buxoriy kabi hadis biluvchi va uni yodlovchi odam topilmaydi"**.

Ha, Buxoroning qadim obidalarida shunday buyuklarning nigohi, tosh ko'chalarida izlari bor. Buxoro Arki ham ana shunday abadiyatga daxldor tarixiy majmuadir.



Muhtasham devorlar bilan o‘ralgan Ark ichida **amirning saroyi, devonxona, masjid, kazarma, omborlar** joylashgan.

Ark **1920-yilda** Qizil Armiya tomonidan bombardimon qilingan. Shundan so‘ng Ark qisman qayta tiklangan va hozirgi kunda **muzey sifatida** faoliyat ko‘rsatmoqda.



Bu boqiy shahardagi biz bilishimiz kerak bo‘lgan yana bir tarixiy obida bu **Mir Arab madrasasi**.

Madrasa **XVI asrda**, Shayboniylar davrida, Buxoro xoni Ubaydullaxon mablagʻi hisobiga **1530 – 1536-yillarda** Shayx Abdulloh (Mir Arab) tomonidan qurilgan.

Mir Arabning asl ismi Sayyid Abdulloh boʻlib, **22 yoshida** Samarqandga kelib Xoja Ahrorga shogird tushgan va Naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan. Madrasa qurilishini oʻzi nihoyasiga yetkaza olmagan, **1536-yil** boshida Mir Arab vafot etgan va uning vasiyatiga koʻra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan.

Amir Shohmurod madrasa oʻquvchilariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) toʻlashni joriy etgan.

Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan oʻquvchilarga shahodatnoma berilgan. Aʼlo baholarda oʻqigan oʻquvchilar turli sovgʻa va naqd pul mukofoti bilan taqdirlangan.

Masalan, Kamoliddin ismli **qoʻshrabotlik oʻquvchi** madrasani aʼlo baholar bilan yakunlagach, unga amir Abdulahad (**1859-1911 yillar**) sarupo kiygizib, “**Qurʼoni karim**” va “**Al-Jomeʼ as-sahih**” kitoblarini sovgʻa **qilib** saroyda ishlashga taklif etgan.

Shoʻrolar davrida faoliyati vaqtincha toʻxtatilgan, **1945-yilda** yana tiklangan. Oʻquv muddati **4 yil**. Diniy fanlar hamda umumtaʼlim fanlari, arab, ingliz, rus va fors tillari ham oʻrgatiladi.

**Xiva xazinasi (5 daqiqa)**

**Interaktiv mashgʻulot**

### **O‘qituvchi:**

“Endi kelinglar, Xivaga bordik, deb tasavvur qilaylik. Ko‘z oldimizga nima keladi?”

(o‘quvchilar: “Ichan-Qal’a”, “Kalta minor”, “saroyla”, “hunarmandlar”)

“To‘g‘ri! Xiva – bu yerda har bir g‘isht san’atga aylangan shahar.

Ichan-Qal’a – jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kirgan yagona jonli shahar.

Bu yerda har bir xonadonda bir hunar bor: kulolchilik, naqqoshlik, zargarlik, chodir tikish.

Xivaliklar “har ishni qalb bilan qilish’ni yaxshi bilishgan”.

### **Interfaol savol:**

**O‘qituvchi:** Agar siz Xivaga borsangiz, nimani ko‘rmoqchi yoki nimani o‘rganmoqchi bo‘lar edingiz?

*(o‘quvchilar javob berishadi)*

**O‘qituvchi:** Demak, **3 ming** yil oldin ham Xorazmda turkiy qabilalar yashagan va davlat tizimi bo‘lgan. Xorazmdagi tarixiy obidalar ham o‘sha davrlardan buyon bunyod etilgan, urushlarda vayron bo‘lgan va qayta tiklangan.

**“Har bir tosh, har bir ko‘hna devor – sening o‘tmishing, sening o‘zingdir”,** deb bejizga aytishmagan. Chunki ajdodlarimizdan meros bu tarixiy obidalar bizga juda katta ruhiy madad beruvchi betakror madaniy meros sifatida abadiyatga daxldordir.

Ana shunday obidalardan yana biri bu Xivadagi **Ichan qal’adir.**

Xivanning ichki qal'asi (Shahriston) qismi va Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan.

Ichan qal'aga **4 darvoza** (Bog'cha, Polvon, Tosh, Ota darvozalar)dan kirilgan.

**Undagi me'moriy yodgorliklarning yaratilish 4 davrga taalluqli:**

**Birinchisi** Mo'g'ullar istilosi davriga qadar, bu davrdan Ko'qna arkning g'arbiy devori, qal'a devorining shimoliy sharqiy burchagidagi qadim davrga mansub burj va qal'a devori qoldiqlari saqlanib qolgan.

**Ikkinchisi** Xorazmning **1220-yildagi** mo'g'ullar istilosidan keyin tiklanish davri. Bu davrda Sayid Alovuddin maqbarasi va boshqa mahobatli binolar qurilgan.

**Uchinchi davri XVI- XVII asrlarga** to'g'ri keladi. Abulg'ozixon va Asfandiyorxon hukmronlik davrida Ichan qal'ada **1657-1688-yillarda** Anushaxon hammomi, Oq masjid, Xo'jamberdibek madrasasi bunyod etildi.

**To'rtinchi davri 18-20-asrlarni** o'z ichiga oladi. Bu davrda masjid, madrasa, tim va toqilar qurildi. Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo'l o'tkazildi. **Juma masjid** qayta qurildi. Yangi va katta **Tosh hovli** saroyi, **Olloqulixon karvon saroyi**, **Arab Muhammadxon va Musa Tura** madrasalari barpo etildi.

### 3. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

**O'qituvchi:** Mana bugun biz yurtimizdagi qadimiy va boqiy shaharlardan ayrimlari, ya'ni eng mashhurlari haqida gaplashdik. Shuningdek, hali Shahrisabz, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent, Qarshi kabi qadimiy shaharlarimiz ko'p.

Kelinglar, hozir sizlar bilan bir jumboq o'yin o'ynaymiz.

***Boqiy shahar tasvirlari (jumboq)***

*Boqiy shaharlardagi turli inshootlar va obidalarining suratlari ko'rsatiladi. O'quvchilar ularning nomini va joylashgan shaharini topishi kerak. Har bir to'g'ri javob uchun bitta smaylik beriladi.*

**Yakun:**

*Yakunda boqiy shaharlar haqidagi o'quvchilarning savollariga o'qituvchi javob beradi.*